

Eski shahar ovqat komiteti musulmonlar uchun nima foyda keltirdi?

II

Ovqat komitetining ulamo jamiyati qo'lina o'tgach ishlagan ishlari, komitetning har bir umumiy majlisida ulamo jamiyatining qarorlarini doklad qiluv, har bir ishda shariatni qurol qilub faqir xalqni oyoq ostina solub toptar kabi jinoyatlarga ortkab aytuvdan iborat bo'ldi. Komitet majlislarida muzokaraga qo'yilgan masalalar: mudarris, domla, imomlarga qoplabda pudlab un beruv, uldan ishlab kelgan komitet a'zolarini nendigina bahonalar bilan bo'lsa-da tard etub o'rmina o'zlari shekilli demoqratlarning qonunlarini keltirub qo'yuv, komitetda ishlovchi ishchilarni qisuv uchun taftishchilar qo'yuv va hakazo va hakoza... Shunida aytub o'targa kerakki, ulamo durinda ovqat komitetidan faqat ulamolar va olarga iyargan qora guruhlarga foydalanub faqir xalq esa ochliqdan qirila boshladi. Komitetda ulamo ko'bachilik tashkil etub ishlarga yo'l bermaganliklari sababdin oktyabr 15 inda kambag'allar tarafdori bo'lgan bir necha zotlar iste'fo berdilar. So'ngra ulamo ovqat komitetin o'zlari tilagancha idora qila boshladilar. Olarning xayotidan ovqat komitetining bir necha qarorlarini yozub o'tam.

31-dekabrda komitetning umumiy majlisida 3 ariza qaralgan. Birinchi ariza jamiyat xayriya tarafidan bo'lub, jamiyat o'z tarbiyasindagi ochlarga mahalla hisobidan ovqat berilun so'ragan. Ikkinchi ariza ulamo jamiyati tarafidan bo'lub, ul komitetdan olub turgan ovqat, qand, shakar, choylarning ustina boziyofat 15 qadoq qand, 2 qadoq choy so'ragan. Uchinchi ariza sobiq gorodskoy g'alava Saidmahmud Muhiddin o'g'lidan bo'lib, ul o'zi uchun har oyda 2 pud un, 10 qadoq qand, 1 qadoq choy beriluvin so'ragan. Bu arizalarni tekshirgach natijasinda jamiyati xayriyaga hech narsa bermasga, so'nggi ikkisining so'raganlarin tamomila bajo qilurg'a qaror qilingan. Buning kabi nohaq qarorlar majlis sayin ishlana borgan. Fevral oyinda komitetda ovqat yo'q bo'lub butun xalqga 900 pud un bermakinda, faqat mullalarga 550 pud un berildi.

Mana bu borasida bizni jannatga olub boruvchi ulamomizning ishlagan ishlari...

Ishchilar davri kelasi nomerda.

*G'ozu Yunus Muhammad o'g'li. "Ulug' Turkiston" gazetasi
1918-yil 20-iyul, 118-son.*

(G.O.)